

## TEMURBEKLAR MAKTABLARI O'QUVCHILARINI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

*Atamatov Baxtiyor*

*Farg'ona "Temurbeklar maktabi" harbiy  
akademik litseyi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Temurbeklar maktablarida ta'lim va tarbiya tizimi esa farzandlarimizning rivojlanayotgan qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirishga, ularning intellektual imkoniyatlariga asoslanib, kuchli shaxslar qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. SHu bois ham yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularning intellektual bilimlarini rivojlantirish va ularni qo'llab-quvvatlash dolzarb ijtimoiy ehtiyojlardan sanaladi.

**Kalit so'zlar:** Intellect koeffitsent, aqliy qobiliyat, fikrlash, o'qish, o'rganish, individual-psixologik xususiyat va bog'langan intellekt

Pedagogning kasbiy faoliyati mohiyati va shakllaridan kelib chiquvchi reflektiv madaniyatining mazuniga oid xususiyatini aniqlab olish va ta'riflash juda muhim ahamiyatga ega.

Intellect – insonning aqliy qobiliyati; hayotni atrof muhitni ongda aynan aks ettirish va o'zgartirish, fikrlash, o'qish, o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati; turli masalalarni hal qilish, oqilona ish tutish, voqea hodisalarni oldindan ko'ra bilish layoqati tushuniladi.

Intellect koeffitsentining eng muhim tomoni, avvalo, xalqaro birlik sifatida butun jahonda tanilganligidir. Ya'ni agar biz bir kishini ta'riflab, uning intellektual ko'rsatkichi 120 IQ ni tashkil etadi desak, uni Amerikada ham, Yaponiyada ham taxminan bir xil tasavvur qilishadi va bu kabi ko'satkichda ega bo'lgan kishi nimaga qodir ekanligini ko'pchilik ziyolilar tushunishadi.

Intellectning yuqori ko'rsatkichi bilish jarayonining murakkab muammolarini hal qilishda muhim ahamiyatga ega. Ba'zi olimlar IQ ni nazariy tomondan o'rgangandan so'ng, u ma'lum bir mamlakatning siyosiy holatini tezroq, jadalroq yuksaltirishda qo'l keladi, deb hisoblashadi. Lekin haqiqatda bunday emas. Chunki siyosat muvozanatligi bilan ajralib turadi. Mashhur shoir Robert Berns aytganidek, "Insonlar haqida (hatto bolalarni ham) IQ si bo'yicha xulosa chiqarmang. Intellect bu tuxfa, lekin insoniylik qirralari oldida u juda katta ahamiyatga ega emas."<sup>1</sup>

<sup>1</sup> X.Айзенк, Д.Эдванс "Энциклопедия психологических тестов: коэффициент интеллектуальности вашево ребёнка"  
Москва-1997. с 12

Aql-zakovat, intellekt ko‘proq individual-psixologik xususiyat bo‘lib, nisbatan muqimdir, undan kishi foydalanadimi-yo‘qmi, yoki foydalansa qanday maqsadda, qay darajada foydalanadi, imkoniyat sifatida nisbatan kam o‘zgaradigan va bir umrga berilgan xususiyatdir. Insonning ma’naviy hislatlari esa, ijtimoiy ustqurmalaridir. Bu xislatlar shu jamiyat ongi, mutaxassisning munosabatlari tizimiga, unga yaratilgan sharoitlarga bog‘liq bo‘lib, uning tashqi va ichki muhitlarining o‘zgarishi bilan bu xususiyatlar ham, o‘zgarishi (takomillashuvi, mukammallashuvi yoki aksincha, teskari tus olishi) mumkin.

**Intellekt inson aqliy faoliyatining, aql-zakovatini, ongli hatti-harakatinig yuksak shakli hisoblanadi. Intellekt tevarak-atrofni, ijtimoiy muhitni hamda voqelikni bilish quroli, shuningdek, insonning keng ko‘lamdagi faoliyatini oqilona amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi.**

Chindan ham intellektual salohiyatni yuksaltirish bugungi kunda milliy taraqqiyotning asosiy sharti va mezoniga aylanmoqda. Chunki intellektual jihatdan qoloq xalq hech qachon rivojlanmaydi. Dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar eksport qiladigan mahsulotlarining ko‘pchiligi intellektual mulk hisoblanadi.

Odamning intellekti ancha murakkab tuzilishga ega bo‘ladi va faqat ko‘plab fikrlash turlarini emas, balki har xil intellektual operatsiyalar, malaka va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi.

Intellekt individning ma’lum darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari tuzilishidan iboratdir.

Intellektning mohiyati va taraqqiyotini tushuntirishda psixologiyada ikki xil qarash mavjud:

1. Intellekt - nasliy xususiyat, ya’ni avloddan avlodga o‘tuvchi tug‘ma xususiyat sifatida.
2. Intellekt - organizm imkoniyatlari va maqsadga muvofiq ta’lim tarbiya ta’sirida shakllanuvchi xususiyat sifatida.

Intellekt atamasi kundalik hayotimizda juda ko‘p ma’noda qo‘llanadi, turlicha izoh beriladi. Intellektni mustaqil reallik sifatida ajratishni asosiy mezoni uning xulq atvorini boshqarish funksiyasi hisoblanadi. Intellekt to‘g‘risida qandaydir qobiliyat sifatida gapirgan vaqtlarida birinchi navbatda uning inson va oliy hayvonlar uchun uning adaptatsiya (ko‘nikuvchanlik, moslashish) ahamiyatiga tayanadilar.

“Bog‘langan intellekt” omili shaxsning bolaligidan to umrining oxirigacha sotsiallasuvi davomida egallagan bilimlari, intellektual ko‘nikmalarining majmuasi tomonidan aniqlanadi. Bog‘langan intellekt omili verbal va arifmetik faktorlar bilan mustahkam ijobiy muvofiqlashadi, testlarni hal qilish vaqtida namoyon bo‘ladi. “Erkin intellekt” Bog‘langan intellekti faktori bilan ijobiy muvofiqlashadi, chunki “Erkin intellekt” birlamchi to‘plangan bilimlarni belgilaydi.

Kettelning nuqtayi nazari bo'yicha, "Erkin" intellekt madaniyatidan qanchalik bahramandlikdan mutlaqo mustaqildir. Uning darajasi bosh miya sharlarining "uchlamchi" assosativ qobig'ning umumiy rivojlanishiga bog'liqdir va u sinaluvchidan tasvirdagi turli elementlarning munosabatlarni topish talab qilinganda, perseptiv vazifalarni hal etishda namoyon bo'ladi. Kettel ularni konkret vazifalarni hal qilish uchun qo'lga kiritilgan ayrim ko'nikmalar, deb ta'riflagan edi. Ontogenezda bilish qobiliyatlarini tadqiq etish nastijalari, bir qarashda Kettel modeliga mos tushadi. Haqiqatdan ham, 50-60 yoshlardan keyin kishilarda ta'lim olishga bo'lgan qobiliyat yomonlashadi, yangi axboratlarni ishlash tezligi pasayadi, qisqa muddatli xotira hajmi kamayadi. Intellektual testlarni hal etishning muvaffaqiyati. Intellektual parametrlarga ham, madaniyatdan bahramand bo'lishga ham, qiziquvchlikka, faollikga va boshqa omillarga bog'liq.

Inson barcha boshqa jismlar ega bo'lgan hislatlarga egadir, lekin u boshqa jismlarda bo'lmagan qobiliyat va kuchga ya'ni aql va so'zlash qobiliyatiga ham egaki, bu kuch uni tabiatning boshqa jismlaridan ajratib turadi va unga tabiat ustidan hokim bo'lish imkoniyatini beradi.

Abu Nasr Forobiyning fikricha, aql yordamida inson uni o'rab olgan mavjudodning mohiyatini tushunadi, inson tanasi, miyasi sezgi organlari tug'ilishidan mavjud, lekin aqliy bilimi, ruhi intellektual aqliy hislatlari keyinchalik vujudga keladi.

Abu Ali ibn Sino fikricha, har bir aqlning o'z sohasi va ruhi bor. Aqllar mana shu tarzda yuqoridan quyiga qarab tushadi. Shu bilan birga ushbu bobda chet el olimlarining mavzu yuzasidan ilmiy qarashlarining nazariy tahlili keltirib o'tilgan.

Temurbeklar maktablari o'quvchilarini intellektual rivojlantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari shakllatirishda buyuk mutaffarkirlar va jaxondagi tajribasidan foydalangan holda amaliyotga tadbiiq etilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

Новый взгляд на умственное развитие и развивающее обучение // Вопросы психологии. - 1996. - №3. - С. 138-141.

2. K.Hoshimov, S.Ochil. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. T. "O'qituvchi" 1995 y. 1-jild
3. I.P.Ivanov, M.E. Zufarova, "Umumiy psixologiya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti T: 2009, 376-b
4. Abdulla Qodiriy "Ma'naviyat yulduzlari" Xalq merosi nashriyoti, T: 2001
5. Kaykovus, Qobusnoma /Nashrga tayyorlovchi: S.Dolimov. – T.: O'qituvchi, 2006
6. Abulqosim Firdavsiy. Shohnoma. Birinchi kitob. T., G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti 1975
7. Ibrohimov A va boshqalar. Vatan tuyg'usi. T., 1996